
TUMAN HOKIMI HUDUDLARDA

Qo'shtepa tumani hokimi, I sektor rahbari I. Novikov va mutasaddi rahbarlar tomonidan Nurafshon, Yo'ldoshobod, Oqtepa va Qayrag'och mahalla fuqarolar yig'inlarida aholining shaxsiy tomorqasidan foydalanishi holati o'rganildi.

Tuman hokimi aholining tomorqa yer maydonlaridan qanday foydalanayotganiga alohida e'tibor qaratdi. Tomorqasiga turli qishloq xo'jaligi ekinlarini ekib daromad olishga harakat qilayotgan mehnatkash insonlarning karantin davridagi faoliyatlari bilan yaqindan tanishib, o'zining takliflarini berdi.

Shuningdek, tuman hokimi aholini asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini o'rganish maqsadida savdo do'konlarida ham bo'ldi. Oziq-ovqat do'konlarini kundalik zarur mahsulotlar bilan ta'minlanganligi va narx-navoni sun'iy oshirmaslik yuzasidan savdo shaxobchalari rahbarlari bilan suhbatlashdi.



2020-04-23 14:22:24